XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 25 - dekabr VI-85-119-10-0-K/23 Toshkent viloyati hokimiligi

Yangiyo‘l shahar “BIOKIMYO” aksiyadorlik jamiyati tomonidan yetkazib beriladigan issqlik energiyasi xizmatlari tarifi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining O‘zbekiston Respublikasining “Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasi 5-qismiga va “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan, Yangiyo‘l shahar “BIOKIMYO” aksiyadorlik jamiyati tomonidan ishlab chiqarilgan hamda aholi shaxsiy xonadonlarini isitish uchun realizatsiya qilinadigan issiqlik energiyasi xizmatlari tariflarini tartibga solish maqsadida, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Yangiyo‘l shahar “BIOKIMYO” aksiyadorlik jamiyatining 2023-yil 24-oktabrdaga №03-25-457/4-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasining 2023-yil 16-oktabrdagi № H-11-01/03-4263-sonli xati ijro uchun qabul qilinsin.

2. “BIOKIMYO” aksiyadorlik jamiyati tomonidan Yangiyo‘l shahridagi aholiga 1 m2 uchun 3539,5 so‘m (uch ming besh yuz o‘ttiz to‘qqiz so‘m);

yuridik korxonalar uchun 1 Gkal issiqlik energiyasi narxi 218500 so‘m (QQS siz) etib belgilansin.

Bunda, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasining 2023-yil 16-oktabrdagi N-11-01/03-4263 sonli xulosasi inobatga olinganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining viloyat boshqarmasi (Zarifa Eraliyeva), “Toshkent haqiqati” va “Tashkentskaya pravda” gazetalari (G’ayrat Sheraliyev) iste’mochilarga yetkazib beriladigan issiqlik energiyasi xizmatlarining yangilangan tariflari 2024-yil 1-yanvardan boshlab qo‘llanishi yuzasidan ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borishi tavsiya etilsin.

4. “BIOKIMYO” aksiyadorlik jamiyati (Rustambek Alikulov) iste’mochilarga yetkazib beriladigan issiqlik energiyasi xizmatlarining yangilangan tariflari 2024-yil 1-yanvardan boshlab qo‘llanishi yuzasidan xar bir mahallada targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borsin.

5. “BIOKIMYO” aksiyadorlik jamiyati (Rustambek Alikulov) belgilangan narxlarni muddatidan oldin qo‘llanilishiga hamda asossiz oshib ketmasligi uchun shaxsan javobgar etib belgilansin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi hamda 2024 yil 1-yanvardan e’tiboran iste’mochilarga yetkazib beriladigan issiqlik energiyasi xizmatlarining yangilangan tariflari qo‘lanilishi belgilansin.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Axmadali Xudayberganov hamda viloyat hokimining shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish, obodonlashtirish va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Barxayot Meliyev zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari viloyat kengashi raisi **Z.Mirzayev**